

**ANTROPOGEN OMILNING SHAHARLAR GEOEKOLOGIK VAZIYATIGA TA'SIRI
(FARG'ONA-MARG'ILON AGLOMERATSIYASI MISOLIDA)****ВЛИЯНИЕ АНТРОПОГЕННОГО ФАКТОРА НА ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ
ГОРОДОВ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНА-МАРГИЛОНСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ)****INFLUENCE OF AN ANTHROPOGENIC FACTOR ON THE GEOECOLOGICAL
CONDITION OF CITIES (ON THE EXAMPLE OF FERGANA-MARGILAN AGGLOMERATION)****Fattoxov Ne'matullox Abdulxakim o'g'li¹**¹ Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasida o'qituvchisi**Sobirova Sojida Tohirjon qizi²**² Farg'ona davlat universiteti geografiya yo'nalishi talabasi**Annotasiya**

Ushbu maqolada butun dunyoning katta shaharlarida yuzaga kelayotgani kabi O'zbekistonning ayrim shaharlaridagi yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning sabablari ochiqqlangan. Mazkur jarayonlar mamlakatimizda shakllanib kelayotgan Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi misolida tushuntirilgan. Mazkur ikki shahar hududida aholining tobora zichlashib borayotganligi, o'rta va kichik tipdagi sanoat korxonalarining ko'payib borishi natijasida shakllanayotgan geoeologik vaziyatga qisman baho berilgan. Shuningdek, bu muammolarning bosh sababi bo'lgan - antropogen omilning ta'siri optimallashtirishga ehtimoliy yechimlar ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье объясняются причины экологических проблем в некоторых городах Узбекистана, а также в крупных городах мира. Эти процессы поясняются на примере формирующейся в нашей стране Фергана-Маргиланской агломерации. Дана частичная оценка геоэкологической ситуации, сложившейся в результате роста плотности населения и увеличения средних и малых промышленных предприятий на территории этих двух городов. Также показаны возможные пути оптимизации влияния антропогенного фактора, который является основной причиной этих проблем.

Abstract

This article explains the causes of environmental problems in some cities of Uzbekistan, as well as in major cities around the world. These processes are explained using the example of the Fergana-Margilan agglomeration emerging in our country. A partial assessment of the geo-ecological situation that has developed as a result of increasing population density and the increase in medium and small industrial enterprises in the territory of these two cities is given. Possible ways to optimize the influence of the anthropogenic factor, which is the main cause of these problems, are also shown.

Kalit so'zlar: aglomeratsiya, urbanizatsiya, geoeologik vaziyat, aholi zichligi, atmosfera havosi.**Ключевые слова:** агломерация, урбанизация, геоэкологическая ситуация, плотность населения, атмосферный воздух**Key words:** agglomeration, urbanization, geoeological situation, population density, atmospheric air**KIRISH**

Shahar joylar aholi maskanlarining eng oliy namunasi bo'lishiga qaramasdan, ulardagi qator ijtimoiy, ekologik muammolar sababli bugungi kunda insonlarning mazkur hududlarga nisbatan qarashlari o'zgarmoqda. Shu sabadan bo'lsa kerak keyingi paytlarda dunyo hamjamiyatida optimal shahar mavzusi bot bot ko'tarilmoqda. Albatta shaharlar o'zida katta hajmdagi insonlar jamoasini to'plashi o'z navbatida turli ijtimoiy-ekologik muammolarni yuzaga keltirish isbot talab qilmas holatdek tuyuladi. Ammo ularni to'g'ri hududiy tashkil etish orqali optimal shahar modeliga erishish mumkin.

O'zbekiston shaharlarida keyingi yillarda asosiy salbiy holat sifatida atmosfera havosining keskin yomonlashayotganligi aytilmoqda. Haqiqatan ham mamlakat poytaxti Toshkentning atmosfera havosi iflos shaharlar reytingida ilgarilab borayotganligi buning isbotidir. Bu qatori mamlakatning boshqa shaharlarida ham atmosfera havosining kuchli ifloslanish holatlari qayd etilib kelinmoqda. Bunday vaziyatlar insonlarning shahar hududlari tabiatidan nooqilona foydalanayotganligi, shaharlar obodligi uchun qilinayotgan ilmiy tadqiqotlarning amalga tadbir etilmayotganligi ortidan shakllanmoqda. Mamlakatimizda bunday dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ko'rish kunning zaruratiga aylanmoqda. Bunda shahar hududlarda olib borilayotgan geografik tadqiqotlar alohida o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aglomeratsiya va undagi muammolar haqidagi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda ko'p uchraydi. Avvalo, aglomeratsiyaning asosiy tarkibi bo'lmish shahar ozi nima ekanligiga qisqacha ta'rif berib o'tsak. Shahar — aholisi, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan yirik aholi manzilgohi. Aglomeratsiya esa bir necha shahar va shaharchalarning bir yirik shahar atrofida jamlangan majmuidir. Aglomeratsiya bevosita qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmagan aholi to'plangan markaz. Agglomeratsiya markazidagi yetakchi shahar atrofidagi shahar va shaharchalar uchun iqtisodiy va madaniy markaz bo'libgina qolmay, balki ularning joylashishi va o'sishiga ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omil hamdir[6].

Aglomeratsiya maqomini olish uchun urbanizatsiyalashgan hududlar qator ko'rsatkichlarga ega bo'lishi zarur. Masalan, yo'ldosh shaharlardan yetakchi shahar orasidagi masofa 2 soatdan oshmasligi zarur va ular orasida moyatniksimon migratsiya yaxshi qo'yilgan bo'lishi ham muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kundagi dunyoning ko'plab aglomeratsiyalari qatori Farg'ona – Marg'ilon aglomeratsiyasida ham tobora salbiy oqibatlariga olib kelayotgan geoekologik muammolar ko'zga tashlanib bormoqda. Xususan, antropogen omil natijasida aglomeratsiyaning deyarli barcha hududlarida qator muammolar ko'zga tashlanmoqda. Sanoatning rivojlanishi Farg'ona shahri atrof muhitining ifloslanishida katta ta'sirga ega bo'lsa, antropogen yukning ortiqqligi Marg'ilon shahrida turli xil geoekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Aholi punktlarida va avvalambor, yirik aglomeratsiyalarda atrof-muhitni muhofaza qilish ayniqsa muhimdir. Bu ifloslanishning asosiy manbalari turar joylarga yaqin joylashganligi va uning sog'lig'iga xavf tug'dirishi bilan bog'liq. Urbanizatsiya, havo, suv va tuproqning ifloslanishi, uy-ro'zg'or ehtiyojlari uchun katta miqdordagi suvdan foydalanish, iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan landshaftlardagi tub o'zgarishlar bir qator ekologik va biotibbiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shaharlarda havoning kimyoviy ifloslanishining asosiy manbalari sanoat korxonalari (transport tizimlari bilan bir qatorda) sanoat korxonalari, avtomobil transporti va turli chiqindilarni yoqish jarayonidir. Sanoat manbalariga quyidagilar kiradi: qora va rangli metallurgiya, neft-kimyoy, qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo va boshqa sohalar, shuningdek kogeneratsiya zavodlari. Atmosferani elektr stantsiyalaridan yoqilg'ini yoqish mahsulotlari bilan ifloslanish darajasi yoqilg'ining sifati va yonilg'i izolyatsiya qiluvchi qurilmaning tabiatiga bog'liq. Asosiy ifloslantiruvchi moddalar to'liq (oltinugurt va kul oksidi) va to'liq bo'lmagan (asosan uglerod oksidi, kuydirgi, uglevodorodlar) yonish mahsulotlari. Havo azotidan yuqori yonish haroratida hosil bo'lgan azot oksidi muhim rol o'ynaydi[3].

Shuni ta'kidlash kerakki, Farg'ona – Marg'ilon aglomeratsiyasida maksimal atmosferaga zararli chiqindilar qish oylarida issiqlik elektr stantsiyalari va qozonxonalar to'liq quvvat bilan ishlayotganda kuzatiladi.

Ushbu aglomeratsiyada havoni ifloslantiruvchi transport manbalari guruhiga quyidagilar kiradi: temir yo'l, suv, havo va avtomobil transporti. Bundan tashqari, havoning kimyoviy tarkibini o'zgartirishda uning roli tez o'sib bormoqda. Ichki yonish dvigatellari katta miqdordagi kislorodni iste'mol qiladilar va ularning chiqindi gazlarida 200 dan ortiq turli xil kimyoviy moddalar mavjud. Asosiy qismi uglerod oksidi va uning dioksidi, azot oksidi, uglevodorod va qo'rg'oshin birikmalaridir. Yiliga 15 ming km masofani bosib o'tadigan bitta mashina shahar atmosferasidan 4,4 tonna kislorod oladi va 3,3 tonna karbonat angidrid, 0,5 tonna uglerod oksidi, 0,1 tonna zaharli uglevodorod va 30 kg oksidi chiqaradi[5].

Farg'ona sanoat korxonalarining tuproq hamda yer usti va yer osti suvlarini ifloslanishidagi ishtiroki ham juda yuqoridir. Bu borada neftni qayta ishlash zavodining o'rni alohida ahamiyatga egadir. Neft mahsulotalari bilan tuproq qatlamini ifloslanishi undagi turli fizik- kimyoviy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, tuproq mikroelementlari tarkibi o'zgaradi, suv – havo rejimi va oksidlanish rejimi buziladi. Bundan tashqari tuproqdagi uglerod va azotning normal nisbati o'zgarib kislorod fosfor va azot yetishmasligi kelib chiqadi. Buning oqibatida tuproqning agrokimyoviy xususiyatlari yomonlashadi, ekinlar o'sishi sekinlashadi. Tuproq tarkibidagi neft miqdori 400-1000t/gad an oshganda undagi mikroorganizmlar faoliyati tuproqning nafas olish intensivligi susayadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg'ona – Marg'ilon aglomeratsiyasida atmosferaning ifloslanishi eng katta geoeologik muammolardan biri hisoblanadi.

Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (ming tonna)				
№	Hududlar	2021	2022	2023
1	Farg'ona shahar	33,8	39,1	41,3
2	Marg'ilon shahar	0,1	0,2	0,3

Jadval farstat.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzildi[4]

Raqamlar ham shuni ko'rsatib turibdiki, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori yil sayin oshib bormoqda. Bu vaziyat esa zarur ilmiy-amaliy chora tadbirlar ko'rishni talab etadi.

Aglomeratsiya ta'sir doirasidagi ifloslangan tuproqlarni quyidagi guruxlarga bo'lishimiz mumkin: a) Neft maxsulotlari bilan ifloslangan tuproqlar. Bunday tuproqlar Farg'ona sanoat zonasining shimoliy qismida joylashgan bo'lib bunda tuproqlarni neft mahsulotlari bilan ifloslanishda neftni qayta ishlash zavodining ahamiyati katta. Shuningdek, tuproq qoplaminig neft maxsulotlari bilan ifloslanishida yer osti suvlarining ham ta'siri beqiyosdir. Ulardagi neft maxsulotlarining bug'lanishi natijasida tuproqning gaz tarkibi buzulib biosenozi o'zgaradi; b) atmosferadagi turli birikmalar bilan ifloslanayotgan tuproqlar. Bunday tuproqlar asosan hududning shamollar yo'nalishiga mos ravishda tarqaladi. Hududning shamollar yo'nalishi shuni ko'rsatadiki shamollar sanoat zonasining shamol shimoliy-sharq, sharq, janubiy-g'arb, janub tomonlardan eng kam esadi, bu esa yo'nalishdagi atmosfera tarkibidagi zararli kimyoviy elementlarning kam maydonga tarqalishiga sabab bo'ladi. Natijada atmosfera tarkibidagi zararli kimyoviy elementlar zaxarli gazlar va changlar to'planib atmosferada ro'y beradigan turli meteorologik jarayonlar tufayli tuproq qoplamiga kelib qo'shilishiga sabab bo'ladi; c) IEM chiqindilar bilan band yerlardagi ifloslanayotgan tuproqlar. Farg'ona issiqlik energetika markazining shimoliy qismida tashkil etilgan axlatxonasiidagi kulshkal, qurum va boshqa ko'plab chiqindilarning to'planishi oqibatida tuproq qatlami hamda gurunt suvlari ham zararlanmoqda. Sanoat korxonalarida va ularning atrofida zararli chiqindilarning to'planishi ularning ta'siri suv va tuproqqa singishini kamaytirish maqsadida jumladan havoning kimyoviy ashyolar bilan zaxarlanishning oldini olish uchun ular atrofida ihota daraxtzorlari tashkil etilmoqda. Shuningdek zarar yetkazish havfi yuqori bo'lgan korxonalarni shahar hududidan uzoqroq hududlarda qayta qurish chora tadbirlari ham ko'rilmogda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yirik aglomeratsiyalarning vujudga kelishida sanoat korxonalarining ro'li katta. Shuning uchun ham aglomeratsiyalarning ekologik xolatini yaxshilash mavzusi dolzarbligicha qoladi. Bunday muammolardan hech bir hudud yakka o'zi yechim topib chiqib keta olmaydi. Shuni inobatga olgan holda avvalo, yurtimiz shaharlarida kompleks ishlarni amalga oshirish zarur va bu holatda rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish qo'l keladi. Xususan, Farg'ona – Marg'ilon aglomeratsiyasida ham yuqoridagi muammolardan kelib chiqqan holda zarur chora tadbirlarni ko'rish zarur. Globallashuv davrida muammolar ham globallashib bormoqda, bu esa insoniyatdan tezroq zarur choralarni ko'rishni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulkakim o'g, Fattoxov Ne'matullox. "FARG 'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA SHAMOL GULI VA UNI ATMOSFERA HAVOSIGA TA'SIRI" XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 1.10 (2023): 51-55.
2. Abdulkakim o'g, F. N. M., & Shokirjon o'g'li, N. S. (2023). ATMOSFERA HAVOSINING GAZ TARKIBINI O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 504-508.
3. Ahmedov E.A. O'zbekiston shaharlari.–Toshkent: O'zbekiston, 1991.-220 b
4. Fattoxov A. N. et al. XAVONING IFLOSLANISHI VA UNI SALBIY OQIBATLARI //MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS. – 2024. – T. 8. – №. 8. – C. 18-21.
5. Ismoilovich, A. Y., & Abdulkakim o'g, F. N. M. (2022). ATMOSFERA XAVOSINI IFLOSLANISHINI OLDINI OLISHDA TARIXIY VA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 167-179.
6. Soliyev A., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.- T., Universitet, 2018.
7. www.farstat.uz
8. <https://uznature.uz/uz/activity/atmospheric?numer=401>

**“FarDU. ILMIY XABARLAR - НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ”
JURNALIDA CHOP ETILADIGAN MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN
T A L A B L A R:**

1. Jurnal tahririyatiga taqdim etilayotgan maqolaga 1) muallif(lar) ishlayotgan muassasa rahbariyatining yo‘llanma xati; 2) ekspert hay‘ati dalolatnomasi - 2 nusxada; 3) maqola yozilgan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha tahrir hay‘atiga kiritilgan fan doktori hamda filolog mutaxassis imzolagan (imzo tegishli tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim) taqriz-tavsiya ilova qilinadi.

2. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida IMRAD talablari asosida yozilgan bo‘lishi lozim.

3. Maqola qaysi tilda yozilishidan qat‘iy nazar unga uch til – o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya 150-200 so‘z, tayanch so‘z va iboralar (kalit so‘zlar) va UDK raqami ilova qilinadi.

4. Maqola jurnal tahririyatiga “Microsoft Word” dasturida (“Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftda, satrlar orasi bir yarim intervalda) terilgan holda ikki nusxada, elektron varianti bilan topshiriladi.

5. Maqolaning umumiy hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birgalikda) 8-10 sahifadan, qisqa xabarlarining hajmi 4-5 sahifadan oshmasligi talab etiladi. Maqolaning bir nusxasi muallif(lar) tomonidan imzolanadi.

6. Muallifning familiyasi, ism-sharifi, ish joyi, lavozimi, manzili (uy va xizmat telefon raqamlari, elektron pochta) ko‘rsatiladi.

7. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

8. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.

9. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

10. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

11. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**ТРЕБОВАНИЯ,
ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К СТАТЬЯМ ДЛЯ ПУБЛИКАЦИИ В ЖУРНАЛЕ “ФАРДУ. ИЛМИЙ
ХАБАРЛАР - НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ”:**

1. К статье, представляемой в редакцию журнала, следует приложить: 1) письмо-поручительство руководства учреждения, в котором работае(ю)т автор(ы); 2) акт экспертной коллегии - в 2-х экземплярах; 3) рецензию-рекомендацию, подписанную доктором наук, включенным в состав редакционной коллегии по научному направлению написанной статьи, а также специалистом-филологом (подписи должны быть утверждены в соответствующем порядке).

2. Статьи должны быть написаны на узбекском, русском или английском языке в соответствии с требованиями IMRAD.

3. Независимо от языка, на котором написана статья, она сопровождается аннотацией на 150 языках – узбекском, русском и английском, 150-200 слов, ключевых слов и словосочетаний (ключевых слов) и номером УДК.

4. Статью, набранную по программе “Microsoft Word” (“Times New Roman”, шрифт 14 с интервалом 1,5 между строками), надлежит представить в редакцию журнала в двух экземплярах: в виде печатного текста, а электронный вариант - на флеш.

5. Общий объем статьи (вместе с рисунками, таблицами и диаграммами) не должен превышать 8-10 страниц, а объем кратких сообщений – 4-5 страниц. Один экземпляр статьи подписывается автором (авторами).

6. Обязательно следует указать фамилию, имя, отчество автора (авторов), место работы, должность, адрес (номера домашнего и служебного телефонов, мобильного телефона, электронную почту).

7. Рисунки, таблицы, диаграммы, схемы, чертежи, графики должны иметь четкое изображение с полным толкованием сокращений. Формулы в текст должны быть введены с использованием специальных компьютерных программ.

8. Ссылка либо использованная литература указывается не внизу строки в виде примечания, а в конце статьи, в общем списке в порядке последовательности указания в основном тексте. Порядковый номер и страница произведения в списке, из которого приведена цитата, указываются в квадратных скобках после выдержки из текста. При этом имена и фамилии авторов изданий – книги, сборника, монографии, а также наименование источника, индекс издания (город, издательство, год издания) указываются полностью. Следует указать имена и фамилии авторов журнальных статей и других периодических изданий, название статьи, журнала, год выпуска и номер журнала, номер страницы.

9. Представленные статьи передаются редакцией журнала на рецензию. После рецензии статья может быть возвращена автору (авторам) на переработку с учетом вопросов и замечаний. Экземпляры статьи возвращению не подлежат.

10. Статья, получившая положительную рецензию, считается принятой редакцией. Редакция журнала вправе сократить текст статьи и внести в нее редакторскую правку.

11. Статьи, не отвечающие перечисленным выше требованиям, редакцией не принимаются и не рассматриваются.

**REQUIREMENTS FOR ARTICLE SUBMISSION TO "FSU. SCIENTIFIC REPORT -
NAUCHNY VERSTNIC.FerGU":**

1. A letter from the management of the institution in which the author (s) is working; 2) Act of Expert Panel - 2 copies; 3) a written recommendation signed by the doctor of science and a specialist in philology (the signature must be properly duly included) in the editorial board of the scientific direction in which the article is written.

2. Articles must be written in Uzbek, Russian or English in accordance with IMRAD requirements.

3. Irrespective of the language in which the article is written, it is accompanied by an Abstract in 3 languages - Uzbek, Russian and English 150-200 words, keywords and phrases (keywords) and UDC number. The article should be submitted to the journal's editorial office in duplicate in electronic format (flash) in Microsoft Word (Times New Roman 14-dimensional, interval between lines).

4. The total size of the article (including images, tables and charts) should not exceed 8-10 pages, the amount of short messages should not exceed 4-5 pages. One copy of the article is signed by the author (s).

5. The author's name, surname, place of work, position, address (home and office phone numbers, e-mail) are indicated.

6. If the article includes drawings, tables, diagrams, schemes, diagrams, various graphic symbols, they should be clearly and clearly illustrated, and full abstracts should be provided. Formulas should be included in the text in specific computer programs.

7. References quoted or used are shown in the general list at the end of the article, rather than in the form of sub-footnotes. Following the copy of the text, the order number and page of the work cited are given in square brackets. The authors' names for books, collections, monographs, full name of the source, index of publication (city, year of publication and publication) are indicated here. For journal articles and other periodicals the names of authors, article title, journal name, year and number, page number are specified.

8. Articles submitted to the editors are reviewed by the editorial board. The article will be returned to the reviewer, if necessary, to the author for further processing on all questions and objections. Copies of the articles will not be returned.

9. The article received a positive review. Editorial board has the right to shorten the text of the article and make editorial changes.

10. Articles that do not meet the above requirements will not be accepted by the editorial board.